TSUE

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№6

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
OpenAIRE
ROAD
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
BASE
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
Crossref




ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/
2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 209 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili....20
**Malikov Numonjon Kamalovich**

Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri....26
**Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova**

Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan....30
**Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li**

Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida....39
**Musinov Dilshod Sultanovich**

Ways to improve quality in hotels through digital technologies....44
**N.A. Rakhmonova**

Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана....48
**Умаров Б. С.**

Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий....55
**Ёдгоров Сардорбек Самадович**

Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish....61
**Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi**

Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges....67
**Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li**

Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari....73
**Xakimov Zoxid Norbo'tayevich**

To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli....78
**I.F.Sayfiddinov**

Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati....83
**Artikov Ne'matulla Abdusalamovich**

Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan....86
**Akmal Boymurodov**

Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari....91
**Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi**

Вусловиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров....98
**Суюнов Дилмурод Холмурадович**

Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане....104
**Базарова Нигора Равшановна**

Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari....110
**Ergasheva Nigora Abdigapparovna**

Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi....114
**Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li**

Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari....118
**Elbusinova Umida Khamidullaevna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ekologik omillar o‘zgarishining dehqon xo‘jaliklari yalpi hosiliga ta’siri ... 123
**Otamurodova Dildora Abdukrimovna**

O‘zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o‘rni ... 128
**Eshev Furqat A’zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi**

Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка ... 132
**Хашимова Дилёра Пахритдиновна**

Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag‘batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlar ... 138
**Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich**

Import tovarlari bo‘yicha aksiz solig‘ini undirishning nazariy asoslari ... 143
**Abdurasulov Murodjon Bahrom o‘g‘li**

Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана ... 150
**Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.**

Tijorat banklarida chakana to‘lov tizimlarini nazariy asosi ... 155
**Sultonov Davronjon Rustam o‘g‘li**

Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli ... 161
**Mamatraimov Islom Mamanazarovich**

Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta’minlash mexanizmlari ... 166
**Sattorova Nasiba G‘anijon qizi**

Ta’lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o‘smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O’zbekiston ... 170
**Islomova Dilrabo Salomovna**

Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish ... 175
**Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To‘rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G‘ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi**

Pul bozori barqarorligini ta’minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi ... 188
**Sattorova Nasiba G‘anijon qizi**

The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project ... 192
**Akbarjon Iminov**

Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции ... 198
**Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормахматов Бахтиёр Ботиралиевич**

Iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan investiyalar tahlili ... 204
**Namozov Olim Botirovich**

# IQTISODIYOTIGA YO'NALTIRILGAN INVESTIYALAR TAHLILI

**Namozov Olim Botirovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: olimnamozov260628@gmail.com
ORCID: 0000-0001-9934-5743

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy taraqqiyotga eltuvchi omillardan sanalgan investitsiyalar, ularning iqtisodiyotdagi o'rni, afzalliklari hamda iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tadqiqotlaridan foydalangan holda tahlil qilingan. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan. Muallif fikricha har qanday mamlakat o'zining ishlab chiqarish salohiyatidan yuqori va maksimal darajada foydalanishga erishishga harakat qiladi. Shu munosabatdan jalb qilingan investitsiyalar samaradorligini ham ilmiy jihatdan tahlil qilishni taqozo etmoqda.

Kalit so'zlar: investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, YaIM, moliyaviy jarayon, xalqaro savdo, geosiyosiy vaziyat, faol investitsiya siyosati, investitsion muhit, tarif bojxonalari.

Аннотация: В статье, опираясь на исследования отечественных и зарубежных экономистов, проанализированы инвестиции как один из ключевых факторов экономического развития, их место в экономике, преимущества и влияние на экономический рост. Сформулированы научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию системы привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику. По мнению автора, каждое государство стремится максимально использовать свой производственный потенциал; в этой связи эффективность привлекаемых инвестиций также требует научного анализа.

Ключевые слова: инвестиции, прямые иностранные инвестиции, ВВП, финансовые процессы, международная торговля, геополитическая обстановка, активная инвестиционная политика, инвестиционный климат, тарифные пошлины.

Abstract: Based on the research of domestic and foreign economists, the article analyzes investments as one of the key factors of economic development, their place in the economy, advantages and impact on economic growth. Scientific proposals and practical recommendations for improving the system of attracting foreign investments into the national economy are formulated. According to the author, each state strives to maximize its production potential; in this regard, the effectiveness of attracted investments also requires scientific analysis.

Key words: investments, foreign direct investment, GDP, financial processes, international trade, geopolitical situation, active investment policy, investment climate, tariff duties.

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda xorijiy va mahalliy investitsiyalarga bo'lgan moliyaviy ehtiyojni muntazam ravishda yaxshilab borishni ta'minlash eng asosiy vazifalardan biridir. Mazkur moliyaviy jarayonni amalga oshirishda davlatning o'rni kapital mablag'larni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish bilan izohlanadi desak mubolaga bo'lmaydi. Chet el investitsiyalarini milliy iqtisodiyotga jalb etish har qanday davlatning mahalliy va ichki investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Ishlab chiqilgan investitsiya siyosati asnosida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos jihatlarini, yo'nalishlarini, shuningdek, ularni yana-da ko'proq jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydigan asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining o'sish darajasini ijobiy holatda deb bo'lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT)ning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti yangi hisoboti bo'yicha, bu xalqaro savdoning keskinlashuvi va geosiyosiy vaziyatning kuchayishi bilan bog'liq ekanligini, shu bilan birga 2025-yil o'rtalaridan boshlab global vaziyatning ijobiy tendensiyaga erishish istiqbollarini prognoz qilgan.

2025-yilda jahon yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi 2,4 foizga oshishi prognoz qilingan bo'lib, bu o'tgan 2024-yildagi YaIMdan 0,4 foiz punktga past bo'lishini anglatadi. O'tgan yildagi jahon YaIM o'sish sur'ati 2,9 foizni

tashkil qilgan. Joriy yilning yanvar oyida taqdim etilgan BMTning prognozi ma’lumotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, 2025-yilda dunyo bo‘yicha iqtisodiy o‘sishning pasayishi, yuqori inflyatsiya darajasi va xalqaro savdo o‘sishining 2024-yilda 3,3 foizdan 2025-yilda 1,6 foizgacha pasayishini ilmiy prognoz qilishmoqda[2].

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o‘z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o‘ziga xos yo‘nalishini, shuningdek, ularni jalb etishni rag‘batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolaga bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadallik bilan rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘plangan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asoslada tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralarini ko‘rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmog‘i lozim”[1], deb ta’kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e’tirof etganlari bejiz emas.

Mazkur ilmiy maqolada ham, biz investitsiyalarning mamlakatlararo taqsimlanishini, mamlakatimizga kiritilgan investitsiyalarning tarmoq va sohalar bo‘yicha kesimini va ulushi haqida ilmiy fikrlarimiz bilan o‘rtoqlashamiz.

## MAVZUYA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasining hududlariga investitsiyalar jalb qilishning yo‘li – hududlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish uchun erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishdan iborat. Shu o‘rinda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish, ishlab chiqarish va mahalliy mahsulotlar eksporti hajmi va diversifikatsiyasini oshirish bo‘yicha mazkur maxsus iqtisodiy zonalarning turlari faoliyatining hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish maqsadga muvofiqligi bilan izohlanadi. Mazkur amaliy choratadbirlarni amalga oshirishda turli iqtisodchi olimlar o‘zlarining quyidagi fikr va mulohazalarini bildirib o‘tishgan.

Professor Sh.Mustafaqulov o‘z monografiyasida xorijiy investitsiyalarning mamlakat hududlariga ta’sirini baholay turib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini mamlakat iqtisodiyotiga yo‘naltirish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham hal etiladi..., investorlarning qarorlariga nafaqat iqtisodiy nafli, balki ijtimoiy nafli ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, deya ta’kidlaydi [3].

N.G‘.Karimov xorijiy investitsion korxonalar uchun makroiqtisodiy, qonunchilik va ma’muriy shart-sharoitlarni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda barqaror soliq qonunchiligi tizimini joriy etish hamda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, dasturini shakllantirish bilan bog‘liq jarayonlar tadqiq etiladi [4].

E.N.Akerman investitsion muhit jozibadorligi, har bir hududning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi kapital va mehnat resurslarining salohiyati, undan foydalanish darajasiga bog‘liq. Umumiy qabul qilingan nuqtai nazarga ko‘ra, aynan hududning iqtisodiy salohiyati va uning imkoniyatlari u yerda mavjud bo‘lgan barcha majmuaviy resurslardan samarali foydalanish orqali hayotiy zarur bo‘lgan ne’matlarni ishlab chiqarish bilan belgilanadi [5].

D.F.G‘ozibekov yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni xarajatlar usuli bilan hisoblaganda, investitsiyalar asosiy omil (o‘zgaruvchi) sifatida qayd etiladiki, uning o‘zgarishi YaIMga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq ekanini ko‘rishimiz mumkin. Buni asosiy kapitalga yo‘naltirilgan mablag‘lari ma’nosida talqin qilishimiz va ayni paytda investitsiyalarni nomoddiy aktivlar, intellektual mulkka, aylama aktivlarga, shu jumladan, moliyaviy vositalarga ham taalluqli [6] gini ta’kidlab o‘tgan.

E.Pinali izlanishlarida investitsiya muhitini har tomonlama, chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya tavakkali aniqlanadi. Investitsiya muhiti va tavakkali darajalari bir-birlariga teskari nisbatdir. Ya’ni investitsiya muhiti qancha qulay bo‘lsa, investorning tadirkorlik tavakkali shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko‘paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo‘lsa, tavakkal darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomonning sarf-xarajatlari o‘sishiga olib keladi [7] deyilgan.

M.Porter to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va millatlarning raqobat ustunliklari nazariyasini ilgari surib to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTHI) va raqobatdoshlik o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rgandi [8].

Hududlarga investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini asoslashga yo‘naltirilgan yuqoridagi tadqiqotlarda makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish orqali investitsiya jarayonlari va iqtisodiy o‘sishning faol sur’atlarini ta’minlash imkoniyatlari, mamlakatda investitsion muhit darajasi, investorlar uchun imtiyozlar va soliq siyosati kabi moliyaviy instrumentlardan foydalanishning ilmiy jihatlari o‘rganilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hududlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish va ulardan unumli va samarali foydalanish yo‘llari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, statistik ma’lumotlarni va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalangan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarni kompleks va mutanosib tarzda rivojlantirishni ta’minlash, hududlarning mavjud tabiiy-xomashyo, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatidan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish hamda aholining turmush darajasi va sifatini izchil oshirib borish kerak. Bunday maqsadlarga erishish uchun ularning geografik joylashuvi, iqlimi, tarixi, yer resurslari kabi omillardan kelib chiqqan holda kichik va oilaviy biznesni rivojlantirishga e’tibor qaratish kerak. Bu ishlarni aniq va puxta ishlab chiqilgan dastur asosida amalga oshirish kerak.




1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd.so‘m)

Mamlakatimizga kiritilgan investitsiyalar hajmi haqiqatan ham yil sayin o‘sish tendentsiyasiga ega bo‘lmoqda. Biz bundan shunday xulosa chiqarishimiz mumkin ki, mamlakatimizda shakllanayotgan investitsiya muhiti, yil sayin ijobiy ko‘rsatkichlarni o‘z isboti sifatida nominal raqamlar bilan ko‘rsatib turibdi.

Mazkur rasm ma’lumoti shundan dalolat beradiki, Toshkent viloyati va Toshkent shahri qolgan hudud (viloyat)larga nisbatan ko‘proq moliyaviy sarmoya ajratganligi bilan ajralib turibdi. Bittagina Sirderyo viloyatiga yo‘naltirilgan investitsiyalar miqdori bazis (o‘tgan) yilga nisbatan pasayish tendentsiyasini ko‘rsatib turibdi. 2024-yil Sirderyo viloyati 2023-yilga nisbatan 2 210,0 milliard so‘m kam mablag‘ni o‘zlashtirganiga guvoh bo‘lamiz. Bunday holat mamlakatning har bir hududi ham o‘zining investitsion sig‘imi har doim ham ijobiy tendensiyaga ega bo‘lmasligi bilan ajralib turadi.

Bu ikkita rasm shundan dalolat beradiki, hududlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi va ulardan unumli (samarali) foydalanish borasida Sirderyo, Jizzax va Qoraqalpog‘iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish borasida qolgan viloyat (hudud)lardan yalpi ishlab chiqarish bo‘yicha orqada qolayotgani ko‘rsatadi.




2-rasm. Yalpi hududiy mahsulot hajmi, YAHM (joriy narxlarda mlrd.so‘m).

Mazkur viloyatlarda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hatto-ki Navoi viloyati yalpi hududiy mahsulotidan 841,1 milliard so‘mga kam ekanligi, bu viloyatlarda yalpi ishlab chiqarish hajmi pastligini ifodalaydi.

YAHM kam bo‘lgan hududlarda ishlab chiqarish hajmini orttirishda eng avvalo yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, qolaversa yalpi talab asosida yangicha ish o‘rinlarini yaratish va ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz. Biz o‘zimizning tadqiqotimizda mamlakatimiz hududlaridagi YAHM va hududlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini tahlil qilib o‘tdik. Bizning endi maqsadimiz makro darajadagi moliyaviy ya’ni investitsion tahlilni amalga oshirishdan iboratdir. Buning uchun biz Markaziy Osiyo mamlakatlariga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar va ularning hajmi bo‘yicha so‘z yuritamiz.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning UNCTAD Jahon investitsiya hisoboti ma’lumotlariga ko‘ra, qo‘shni Qozog‘iston mamlakati pandemiyaga qadar va pandemiyadan keyingi davr orasida xorijiy investitsiyalarni o‘z mamlakatiga eng ko‘p yo‘naltirgan mamlakat bo‘lib turibdi.



| | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Қозоғистон | 4 714.1 | 3 897.8 | 3 284.2 | 3 669.6 | 3 353.2 | 6 541.3 | 3 223.3 |
| Қирғизистон | - 107.0 | 144.2 | 403.9 | - 401.5 | 226.2 | 54.9 | 490.4 |
| Тожикистон | 307.0 | 359.6 | 364.5 | 106.5 | 84.0 | 174.0 | 140.6 |
| Туркманистон | 2 085.9 | 1 606.6 | 1 853.6 | 1 436.2 | 1 287.3 | 936.0 | 1 378.3 |
| Ўзбекистон | 1 797.3 | 624.7 | 2 316.5 | 1 728.2 | 2 274.8 | 2 498.3 | 2 187.2 |

Қозоғистон Қирғизистон Тожикистон Туркманистон Ўзбекистон

3-rasm. Markaziy Osiyo mamlakatlariga kiritilgan To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi (mln.**dollarda)**

Mazkur rasm ma'lumotlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin ki, pandemiyaga qadar bo'lgan davr oralig'ida qariyb barcha mamlakatlarda investitsiyalar oqimi tebranish harakatda bo'lgan. 2020-yilda jahon iqtisodiyotidagi stabil iqtisodiy o'sish ta'minlanmaganligi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi ijobiy o'sish ko'rsatkichlari bir muncha o'zining ijobiy natijasini bermadi. Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar Markaziy Osiyo mamlakatlariga yo'naltirilgan investitsiyalar miqdorini sezilarli darajada qisqartirdi.

2023-yilda kiritilgan investitsiyalar Markaziy Osiyo mamlakatlarining faqatgina ikkitasida ijobiy natijaga ega bo'ldi, aniqroq aytadigan bo'lsak o'tgan 2022-yilga nisbatan Qirg'iziston va Turkmaniston mamlakatlari, xorijiy investitsiyalarni yo'naltirishda ijobiy natijaga ega bo'ldilar. Qozog'iston Respublikasi 2023-yil, 2022-yilga qaraganda 2 barobardan kamroq investitsiyalarni jalb qildi.

Mamlakatimizga 2023-yil 2022-yildagi investitsiyalar miqdoriga qaraganda 320 mln.dollarlik xorijiy investitsiyalar kam jalb qilindi. 2023-yil ma'lumotlariga tayanib aytishimiz mumkin ki, Markaziy Osiyo respublikalariga bo'lgan investitsiyalar oqimi tebranishlari sodir bo'ldi. Jahonda import mahsulotlariga qo'yilayotgan tarif bojlarini kundan-kun oshib borayotganligi yoki bo'lmasa investitsiya importi bilan shug'ullanuvchi mamlakatlar o'zlarining investitsion qo'ymalarini, yangi ishlab chiqarish turini amalga oshirish uchun o'z mablag'larini sarflashdan hadik sirab turishibdi.

Har bir mamlakat o'zining geosiyosiy pozitsiyasiga ega bo'lgani kabi mamlakatimizning ham dunyo mamlakatlari bilan olib borayotgan ochiq eshiklar siyosati, qolgan ko'plab mamlakatlar olib borilayotgan strategik sherikchilik shularga misol bo'la oladi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va ko'rsatkichlari hamda kelgusi yillarga mo'ljallangan prognozlariga ko'ra ustuvor yo'nalishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, xorij investorlari uchun ishonchli kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yana-da qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarni o'zlashtirish darajasini tahlil qilib chiqqanimizdan kelib chiqib quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz: Bizning fikrimizcha, investitsiya iqlimi barqarorligini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, investitsiya risklari sug'urtasini yoki himoyasi tizimini keng rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'la ma'noda amalga qilinishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, investitsiya iqlimi barqarorligini, fikrimizcha, davlatning xorijiy investitsiyalarga bo'lgan siyosiy munosabati, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, davlat xususiy sherikchilik ulushini, davlat apparati boshqarmasining ishlash samarasi, davlatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiyotning umumiy holati (progress yoki regress), inflyatsiya darajasi, valuta kursining barqarorligi, soliq va bojxona imtiyozlari, ishchi kuchlarining qiymati va mehnat resurslarini ishlatilish tartibi, aniq tovar va xizmat turlariga bo'lgan yalpi talab va yalpi taklifning mavjudligi, qolaversa jamiyat a'zolarining xorijiy kapital va xususiy mulkchilikni shakllanishiga bo'lgan munosabati, jamiyatning ideologik bilimlari darajasi, ishchi kuchlarining tashkilotchilik va tadbirkorlik qobiliyati kabi omillarni chuqur o'rganish va tahlil etish asosida ta'minlash mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatidan ko'zlangan eng asosiy maqsad xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan hududiy korxonalar mahsulot yoki xizmatlarini eksportga yo'naltirishdan iborat.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.
2. https://news.un.org/ru/story/2025/05/1464381
3. Sh.I.Mustafaqulov, Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. BMA. 2017. 208-b.
4. Karimov N.G. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
5. Akerman E.N., Mixalchuk A.A., Trifanov A.Yu. Tipologiya regionov kak instrument soorganizatsii regional'nogo razvitiya // Vestnik Tomskogo gos.un-a. Iqtisodiyot. № 331. S. 126-131.
6. G'ozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2002. – 15-b.
7. Pinali E. Investitsion klimat va xususiy sektor. // Iqtisodiy ko'rib chiqish. – 2005., № 9, S.42-43.
8. Porter, M. (1990) The Competitive Advantage of Nations. London: Macmillan Press.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 6**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07


Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz